



**O'ZBEKISTON DAVLAT
JAHON TILLARI UNIVERSITETI
TARJIMONLIK FAKULTETI
INGLIZ TILI AMALIY TARJIMA KAFEDRASI**

**GLOBALIZATSIYA VA
BARQAROR RIVOJLANISH
DAVRIDA TARJIMA MASALALARI
YECHIMLARI VA CHET TILLARINI
O'QITISHDAGI INNOVATSIYALAR**

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAX‘SUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
TARJIMONLIK FAKULTETI
INGLIZ TILI AMALIY TARJIMA KAFEDRASI**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

**GLOBALIZATSIYA VA BARQAROR RIVOJLANISH DAVRIDA TARJIMA
MASALALARI YECHIMLARI VA CHET TILLARINI O‘QITISHDAGI
INNOVATSIYALAR**

**The International Scientific-Practical Conference
“Solutions to Translation Issues in the Era of Globalization and Sustainable
Development and Innovations in Foreign Language Teaching”**

TOSHKENT 2025

Ushbu to'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 490-sonli "O'zbekiston Respublikasida 2025-yilda xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlar rejasi to'g'risida"gi buyrug'i asosida O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Tarjima fakulteti Roman-german tillari tarjimashunosligi kafedrasidan 2025-yil 18-dekabr sanasida tashkil etilgan "Globalizatsiya va barqaror rivojlanish davrida tarjima masalalari yechimlari va chet tillarini o'qitishdagi innovatsiyalar" masalalariga bag'ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan tashkil topgan.

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to'plamidan professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar, tayanch doktorant va mustaqil izlanuvchilar hamda magistrantlar, talabalar foydalanishlari mumkin.

Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

Mas'ul muharrir:

Baxtiyarov Muxtorjon Yaqubovich

Ingliz tili amaliy tarjima kafedrasidan mudiri, f.f.f.d., dotsent

Mamatkulova Saidaxon Shukurjonovna

Ingliz tili amaliy tarjima kafedrasidan katta o'qituvchisi, f.f.f.d.

Tahrir hay'ati a'zolari:

Bakirova Xilolaxon Botiraliyevna

Tursunnazarova Elvira Tahirovna

Maxsudova Nilufar Abdurasulovna

Saitxanova Azizaxon Xolmuxammedovna

INGLIZ TILIDAGI JURNAL VA GAZETALARNI O‘QISH ORQALI TARJIMA KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MASALASI

**Amirqulov Dilshod Toshtemirovich – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti. O‘qituvchi.**

adilshod9001@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilini o‘qitish jarayonida ingliz tilidagi gazeta va jurnallardan foydalanishning metodik va lingvodidaktik ahamiyati yoritiladi. Davriy matbuot materiallarining o‘quv jarayonidagi o‘rni, ularning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi roli tahlil qilinadi. Gazeta matnlarining jonli va tabiiy til namunasi sifatidagi ahamiyati, lug‘at boyligini kengaytirish, grammatik ko‘nikmalarni mustahkamlash, og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirishdagi imkoniyatlari ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, sarlavha asosida matnni taxmin qilish, kalit so‘zlar yordamida nutq ishlab chiqish, dialog va muhokama mashqlari kabi amaliy topshiriqlarning samaradorligi asoslanadi. Maqolada internet resurslari orqali xorijiy davriy nashrlardan foydalanish imkoniyatlari hamda ularning talabalar motivatsiyasini oshirishdagi o‘rni yoritiladi. Tadqiqot natijalari ingliz tilini o‘qitishda an‘anaviy darsliklar bilan bir qatorda gazeta va jurnallardan foydalanish samaradorligini nazariy va amaliy jihatdan asoslaydi.

Kalit so‘zlar: chet tilini o‘qitish, ingliz tili metodikasi, gazeta va jurnallar, autentik matnlar, kommunikativ kompetensiya, jonli til, nutq rivoji, lug‘at boyligi, motivatsiya

Аннотация: В данной статье рассматривается методическое и лингводидактическое значение использования англоязычных газет и журналов в процессе обучения английскому языку. Анализируется роль периодической печати в образовательном процессе и её влияние на формирование коммуникативной компетенции обучающихся. Особое внимание уделяется

газетным текстам как образцам живого и естественного языка, способствующим расширению словарного запаса, совершенствованию грамматических навыков, а также развитию устной и письменной речи. Обосновывается эффективность практических заданий, таких как прогнозирование содержания текста по заголовку, развитие речи на основе ключевых слов, организация диалогов и дискуссий. Отдельно рассматриваются возможности использования интернет-ресурсов для доступа к зарубежной периодике и их влияние на повышение мотивации студентов. Полученные выводы подтверждают целесообразность интеграции газет и журналов в учебный процесс наряду с традиционными учебными пособиями.

Ключевые слова: обучение иностранному языку, методика английского языка, газеты и журналы, аутентичные тексты, коммуникативная компетенция, живой язык, развитие речи, словарный запас, мотивация

Abstract: This article examines the methodological and linguodidactic importance of using English-language newspapers and magazines in teaching English as a foreign language. The role of periodical materials in the educational process and their impact on the development of students' communicative competence are analyzed. Special attention is paid to newspaper texts as authentic examples of live, natural language that contribute to vocabulary expansion, grammar improvement, and the development of both speaking and writing skills. The effectiveness of practical activities such as predicting article content from headlines, developing speech based on key phrases, and organizing discussions and dialogues is substantiated. The article also highlights the opportunities provided by online resources for accessing foreign periodicals and their positive influence on learners' motivation. The findings support the integration of newspapers and magazines into the English language teaching process alongside traditional textbooks and learning materials.

Keywords: *foreign language teaching, English language methodology, newspapers and magazines, authentic texts, communicative competence, living language, speech development, vocabulary acquisition, learner motivation*

Bugungi kunda chet tilini o‘qitish uchun turli metod va yondashuvlar mavjud bo‘lib, o‘quv qo‘llanmalari tanlovi ham nihoyatda keng. Ularni tanlash, asosan, o‘qituvchining shaxsiy didi, tajribasi va ijodiy yondashuviga bog‘liq. Ingliz tilini o‘rganishning eng samarali va qiziqarli usullaridan biri, fikrimcha, *ingliz tilidagi jurnal va gazetalarni o‘qishdir*.

Xorijiy davriy nashrlarni o‘qishning foydasi haqida juda ko‘p gapirish mumkin. Bunday materiallar nafaqat dunyodagi so‘nggi voqea-hodisalar va yangiliklardan xabardor bo‘lish imkonini beradi, balki lug‘at boyligini kengaytiradi, grammatika va yozma nutqni mustahkamlaydi. Eng muhimi shundaki, gazetalar og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish, shaxsiy nutq uslubi va ifoda manerasini shakllantirishga yordam beradi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, gazetalarning o‘quv qo‘llanmalari va darsliklardan ustun jihati bor — bu “*jonli til*”dir. Aynan shu til orqali siz so‘zlashuv jarayonida ona tilida so‘zlashuvchilar orasida g‘alati yoki sun’iy ko‘rinib qolmaysiz. Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, dars jarayonida gazeta va jurnallardan foydalanish o‘ta qiziqarli bo‘lib, talabalarni xorijiy tilni doimiy ravishda chuqurlashtirishga undaydi.

Jurnal va gazetaning yuqori afzalligi leksikaning takroriyligida, bu talabalarning lug‘aviy zaxirasini nisbatan osonlik bilan ko‘paytirish imkonini beradi. Shuningdek talabalar o‘qituvchi rahbarligida o‘zlarining tayyorgarlik darajasiga muvofiq keladigan maqolalarni tanlab olish mahoratini qo‘lga kiritishlari mumkin [1, 216].

Gazeta va jurnallarning xilma-xilligi turli darajadagi til bilimiga ega bo‘lgan talabalar bilan ishlash imkonini beradi. Turli mavzulardagi maqolalar eng xilma-xil

qiziqish va didga ega bo'lgan o'quvchilar ehtiyojini qondira oladi. Bugungi kunda esa deyarli barcha xorijiy davriy nashrlarni internet orqali topish mumkin. Hatto O'zbekistonning olis hududlarida yashab ham, ingliz tilidagi so'nggi gazeta-jurnallarni bepul mutolaa qilish imkoniyati mavjud.

Aytish joyizki, gazeta maqolalari asosida ko'plab qiziqarli va samarali mashqlarni ishlab chiqish mumkin. Masalan, eng sevimli mashqlardan biri — *“Sarlavha (Headline)”* mashqi bo'lib, bunda talabalarga faqat maqola sarlavhasi beriladi va ular matn nimalar haqida ekanini taxmin qilib, og'zaki bayon qilishlari kerak bo'ladi [3, 156]. Shuningdek, mashqni maqoladan ajratib olingan kalit so'zlar yoki jumlar asosida ham bajarish mumkin.

Bunday topshiriqlar talabalarning lug'at boyligini oshiradi, og'zaki nutqini rivojlantiradi va tasavvurini kengaytiradi, bu esa ta'lim jarayonida juda muhim omil hisoblanadi. Muayyan ibora va konstruksiyalarni mustahkamlash uchun mashg'ulotlarda mashhur shaxslar yoki qiziqarli, hatto biroz shov-shuvli voqealar haqida *“gap-so'z qilish”* usulidan ham foydalanish mumkin. Quyidagi foydali iboralar bunda katta yordam beradi:

“Have you heard about...?”, *“Did you know that...?”*, *“Guess what...?”*, shuningdek, javob uchun: *“Really? I don't believe it”*, *“Are you joking?”*, *“How/When did it happen?”* va boshqalar [2, 18].

Grammatika ham e'tibordan chetda qolmaydi. Talabalarning grammatik bilim darajasiga qarab, turli murakkablikdagi topshiriqlar berish mumkin. Masalan, mavzu asosida so'roq gaplar tuzish yoki o'zidan keyin *gerundiy* yoki *to* bilan / *to* siz infinitiv talab qiladigan fe'llarni topish kabi mashqlar shular jumlasidandir [4, 180].

Albatta, har qanday xorijiy tilni o'rganishda eng muhim omil — bu malakali, ishonchli va mas'uliyatli o'qituvchidir. Shuningdek, video va audio darslar, turli zamonaviy qo'llanmalar ham til o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Qaysi o'quv manbaini tanlash esa, asosan, o'quvchining shaxsiy xohishi va ehtiyojiga bog'liq.

Shunga qaramay, mutaxassislar ta'kidlashicha, ingliz tilidagi gazeta va jurnallar bilan ishlash eng qiziqarli va samarali usullardan biri hisoblanadi. Ularni o'qish orqali biz nafaqat dunyodagi yangiliklardan boxabar bo'lamiz, balki til boyligimizni ham kengaytiramiz. Ba'zi lingvistlar ovoz chiqarib o'qish nutqni rivojlantirish, shaxsiy uslub va gapirish manerasini shakllantirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydilar. Tajribali o'qituvchilarning fikricha, hatto darsliklar, qo'llanmalar va video darslar ham gazetalarga nisbatan yutqazadi, chunki gazetalar jonli va tabiiy tilni taklif etadi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini mustaqil va bepul o'rganishni istagan har bir kishi gazeta va jurnallarga, shuningdek, video darslarga alohida e'tibor qaratishi lozim. Ularning uyg'un qo'llanilishi chet tilini samarali va qiziqarli o'rganish imkonini beradi.

Reference

1. Kambarova, D. Ingliz tilini o'qitishda gazetaning o'rni va gazeta materiallari bilan ishlash metodlari // Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – № 5. – Б. 212–216.
2. Land, G. Using Press Cuttings for Teaching Purposes // Zielsprache Englisch. – 1988. – № 1. – S. 18–23.
3. Land, G. What the Papers Say. – London: Longman, 1981. – 156 p.
4. АЛИМОВ Т. А. ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ В УЗБЕКИСТАНЕ // ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ В УЗБЕКИСТАНЕ Учредители: Министерство высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан. – 2021. – №. 3. – С. 180-191.

	ARTIFICIAL INTELLIGENCE ON THE TRANSLATION PROFESSION		
66.	CHALLENGES OF TEACHING ENGLISH TO UZBEK-RUSSIAN BILINGUALS	Ro'zikhon Rakhmonova	442-445
67.	ПЕРЕВОД СОВРЕМЕННОГО СЛЕНГА И ИНТЕРНЕТ-КУЛЬТУРА В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ	Тен Алика Александровна, Халилова Гузаль Абдупаттаховна	446-453
68.	TRANSLATING OCCASIONALISM IN ADVERTISING TEXTS: CHALLENGES AND STRATEGIES	Qo'ziboyeva Dilnozaxon Abduvoxid qizi,	454-461
69.	TITLE THE DIFFERENCES BETWEEN MACHINE TRANSLATION AND HUMAN TRANSLATION: ADVANTAGES AND LIMITATIONS	Aytmurotov Ozot Kuanshbek o'g'li	462-468
70.	AUDIOVISUAL TARJIMA: OVOZLASHTIRISH VA SUBTITRLASHNING ZAMONAVIY TAMOYILLARI	Shomurodova Sevinch Jasurbekovna, Saitxanova Aziza Xolmuxamedovna	469-473
71.	5-6-SINF O'QUVCHILARI UCHUN TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRUVCHI O'QUV TOPSHIRIQLARINING TURLARI VA TAVSIFIY JIHATLARI	Avazova Farangiz Ixtiyor qizi	474-480
72.	KORPUS LINGVISTIKASI VA PARALLEL MATNLARNING SOHAVIY TARJIMADA FOYDALANILISHI TADQIQI	Bakirova Xilolaxon Botirloyevna	481-490
73.	TARJIMA KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA GAMIFIKATSIYA TEKNOLOGIYALARI	Begnazarova Indira Nurmurat qizi	491-495
74.	BOLALAR SHE'RIYATINI TARJIMA QILISHDA MAZMUNNING QAYTA YARATILISHI	Toshmuhamedova Gulnoza Khusniddin qizi, Xamidova Madinaxon	496-500
75.	INGLIZ TILIDAGI JURNAL VA GAZETALARNI O'QISH ORQALI TARJIMA KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MASALASI	Amirqulov Dilshod Toshtemirovich	501-505